

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Hindiy tilida reduplikatsiyalarning ifodalanish
xususiyatlari**

Bajardi: «Janubiy Osiyo tillari» kafedrası
ta’lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Xakimova Feruza Sayfiddinovna _____

Ilmiy rahbar: «Janubiy Osiyo tillari»
kafedrası katta o’qituvchisi, fil.f.n.
Nurmatov Sirojiddin_____

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

«Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari»

fakul'teti dekani f.f.n. Nosirova S.A.

«___» _____ 2012 yil

«Janubiy Osiyo tillari» kafedrası

mudiri f.f.n. Nurmatov S.S.

«___» _____ 2012 yil

MUNDARIJA:

KIRISH.....	4-8
ASOSIY QISM	
I BOB. HINDIY TILIDAGI REDUPLIKATIV BIRLIKLARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI	9-19
1.1. Olimlar talqinida reduplikatsiyaga oid nazariy qarashlar.....	9-11
1.2. Rus va hind tilshunos olimlari talqinida reduplikatsiyaning o‘ziga xos ifodalanish xususiyatlariga doir nazariy qarashlar.....	11-19
II BOB. HINDIY TILI LEKSIKASIDAGI REDUPLIKATIV BIRLIKLARNING LINGVISTIK TAHLILI.....	20-37
2.1. Hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikativ birliklarning etimologik tahlili.....	20-25
2.2. Hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikativ birliklarning struktur hamda so‘z turkumlariga oid tahlili.....	25-33
2.3. Hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikativ birliklarning tematik tahlili.....	33-37
III BOB. HINDIY TILIGA XOS BADIY MATNLARDAGI REDUPLIKATIV BIRLIKLARNING SINTAGMATIK TAHLILI.....	38-43
3.1. Atributiv birikmaga xos reduplikativ birikmalar tahlili.....	38-41
3.2. Predikativ hamda ob’ektiv birikmalarga xos reduplikativ birikmalar tahlili.....	41-43
XULOSA	43-45
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	45-48

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashni hojati yo‘qdir¹”.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarimiz tiklanish bilan hukumatimiz xorijiy tillarni o‘rganishga keng yo‘l ochib berdi. Endilikda yurtimizda g‘arb tillari bilan bir qatorda sharq tillarini o‘rganishga ham alohida e‘tibor berilmoqda. Bulardan ko‘rinadiki, hindiy va urdu tillarini o‘rganish va ular bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Prezidentimiz I.A.Karimovning Hindistonga bir necha bor qilgan rasmiy safaridan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi keng qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalar bu tillarni o‘rganish zarurligini kun tartibiga qo‘ydi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi Janubiy Osiyo mintaqasidagi Hindiston Respublikasining davlat tili bo‘lmish, Hind-Evropa tillari oilasining hind-oriy tillari guruhiga oid hindiy tilidagi reduplikasiv birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Ta’kidlash lozimki, garchi hindiy tilining o‘ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan o‘rganib kelinayotgan bo‘lsada, lekin hindiy tili leksikasidagi reduplikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari o‘zbek hindshunosligida tadqiqot ob’ekti sifati hali maxsus o‘rganilmagan.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997. –B. 8-9

Yuqoridagilardan anglashiniladiki, hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikativ birliklarning o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ko'pgina tilshunos olimlar hindiy tilidagi reduplikativ birliklarga oid ma'lumotlarni o'z tadqiqotlarida umumiy tarzda qayd etib o'tganlar. Jumladan, K.Guru², Z.M.Dimuyis³, A.P.Barannikov, V.P.Beskrovniy, T.E. Katenina⁴ kabi olimlar reduplikativ birliklarning ifodalanish jihatlarigagina e'tibor berganlar. Hindiy tilidagi reduplikatsiyalarning o'ziga xos leksik xususiyatlari ilmiy jihatdan maxsus o'rganilmagan. Ta'kidlash joizki, garchi hind tilshunosligida mazkur mavzuga doir yirik tadqiqotlar amalga oshirilmagan bo'lsa-da, boshqa sharq tillarida, jumladan xitoy tilshunosligida mazkur mavzuga doir bir necha ilmiy ishlar ham amalga oshirilgan. Jumladan, S.A.Hoshimova «Hozirgi zamon xitoy tilida reduplikatsiya»⁵ mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, shuningdek, M.I.Ishankulova «Indonez tilida reduplikatsiya hodisasi (KATA ULANG)»⁶ mavzusida bitiruv malakaviy ishini yoqlagan. Ko'pgina tilshunos olimlarning ilmiy asarlarida ham reduplikativ birliklarga oid umumiy ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan. Mazkur yo'nalishdagi bitiruv malakaviy ishi o'zbek hindshunosligida ilk bor tadqiq etilayotir.

Ilmiy ishning maqsadi. Ilmiy ishdan ko'zlangan asosiy maqsad hindiy tilidagi reduplikativ birliklarning o'ziga xos jihatlarini atroflicha o'rganish va ularning leksik-semantik xususiyatlarini lingvistik tahlil etishdan iborat.

² Гурю К. Грамматика хинди. Част II. Пер. С хинди Г.А. и Р.И.Баранникових. Под ред. И с предисл. Проф. Б.А.Ларина. -М.: Изд-во иностранной лит-ри, 1962.

³ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986.

⁴ Катенина Т.Е. Очерк грамматики языка хинди. Прил. к «Русско - хинди словарю». -М.: Изд-во лит-ри на inostr. yaz., 1957.

⁵ Hoshimova S.A. Hozirgi zamon xitoy tilida reduplikatsiya. Fil.f.n.....yoz.dis-ya av-ti. –Toshkent, 2009. - 25 b.

⁶ Ishankulova M.I. Indonez tilida reduplikatsiya hodisasi (KATA ULANG). Bitiruv malakaviy ishi. – Toshkent, 2011.

Ilmiy ishning vazifalari. Ishda quyidagi vazifalar amalga oshirish nazarda tutilgan:

- 1) Hindiy tilidagi reduplikativ birliklarga oid ilmiy-nazariy asarlarni o'rganish;
- 2) hindiy tilidagi reduplikativ birliklarga xos so'zlarni lug'atlar yordamida to'plash;
- 3) to'plangan misollarni kartochkalar asosida shakllantirish;
- 4) hindiy tili leksikasiga xos reduplikatsiyalarni etimologik jihatdan tahlil etish;
- 5) hindiy tili leksikasiga xos reduplikativ birliklarni tematik jihatdan o'rganish;
- 6) hindiy tiliga oid badiiy matnlardagi reduplikativ birliklarni aniqlash va ularga doir modellar ishlab chiqish hamda hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikatsiyalarning o'ziga xos ma'no qirralarini atroflicha ochib berish.

Ilmiy ishning ob'ekti. Ishning ob'ekti sifatida hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikatsiyaga xos so'zlar tanlab olindi. Reduplikativ birliklarning leksik-semantik xususiyatlari atroflicha o'rganildi.

Tadqiqot metodi. To'plangan materiallarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ular tarixiy, tavsifiy, hamda statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot manbalari. Tadqiqotga manba sifatida V.M. Beskrovniyning «Xindi-russkiy slovar»i (Moskva, 1959), Kamla Prasad «Darasal» (Ilahaabad, 1980) asari tanlab olindi.

Rus hamda boshqa xorijlik tilshunos olimlarning hindiy tilidagi reduplikativ birliklarga oid yozgan ilmiy asarlaridan ham keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishda ilk marotaba o'zbek hindshunosligida hindiy tilidagi reduplikativ birliklarning o'ziga xos xususiyatlari turli xil metodlar asosida atroflicha o'rganildi. Reduplikativ

birliklarning leksik-semantik xususiyatlari etimologik, tematik, struktur jihatdan tahlil qilindi va ular orasidagi mahsuldor qoliplar aniqlandi.

Mazkur ish nafaqat hind, balki umumiy tilshunoslik bo'yicha ham yangi ilmiy izlanishlarni yozilishida amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalarning joriy qilinishi. Mazkur ilmiy ish natijalari bo'yicha hindshunoslikka bag'ishlangan ilmiy anjumanlarda, jumladan, har yili Janubiy Osiyo tillari kafedrası qoshida o'tkazilib kelinadigan "Talabalar ilmiy anjumani"da mavzu yuzasidan ma'ruzalar qilingan.

Ilmiy ishning tuzilish. Mazkur ish kirish, 3 bobdan iborat asosiy qism, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Birinchi bobda hindiy tilidagi reduplikativ birliklarning o'ziga xos ifodalanish xususiyatlari tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy manbalarga tayanilgan holda atroflicha o'rganiladi va ular orasidagi o'ziga xos ifodalanish jihatlari misollar yordamida ko'rsatib beriladi.

Ikkinchi bobda, hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikativ birliklarga oid so'zlar lingvistik, ya'ni etimologik, struktur hamda tematik jihatdan tahlil etildi va ular orasidagi mahsuldor qoliplar ko'rsatib beriladi.

Uchinchi bobda esa, hindiy tiliga xos badiiy matnlardagi reduplikativ birliklarga oid so'zlarning sintagmatik tahlili amalga oshirilgan va tahlil natijalari turli xil modellarda o'z aksini topadi.

Xulosada tadqiq etilgan materiallar tahlilidan kelib chiqadigan asosiy natijalar, nazariy va amaliy umumlashmalar bayon etilgan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida tahlil natijalariga aloqador bo'lgan 7 ta jadvaldan foydalanilgan. Shuningdek, ishda hindiycha misollar transliteratsiya holatida lotin alifbosida berilgan.

Mazkur malakaviy ishda quyidagi shartli qisqartmalar belgilandi:

1. *A* – arab soʻzlari
2. *E* – ingliz soʻzlari
3. *H* – hind soʻzlari
4. *P* – fors soʻzlari
5. *S* – sanskrit soʻzlari
6. *T* – turk soʻzlari
7. *AB* – atributiv birikma
8. *OB* – obyektiv birikma
9. *PB* – predikativ birikma
10. *RB* – reduplikativ birikma
11. *MZ* – muzakkar
12. *MS* – muannas
13. *OS* – ot soʻz turkumi
14. *SS* – sifat soʻz turkumi
15. *HF* – holat feli
16. *Od.n.z.f.* – oddiy notugal zamon feli
17. *FIM* – felning istak mayli
18. *PF* – potentsial feʼl
19. *IF* – intensiv feʼl

I BOB

HINDIY TILIDAGI REDUPLIKATIV BIRLIKLARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI

1.1. Olimlar talqinida reduplikatsiyaga oid nazariy qarashlar

Reduplikatsiya lotincha “reduplikatio” soʻzidan olingan boʻlib, “takrorlash”, “ikki marta qaytarish” maʼnosini anglatadi⁷. Takroriy soʻz hosil qilish usuli hisoblanadi.

Takror reduplikatsiyaga qaraganda kengroq maʼnoga ega. Yaʼni barcha takroriy deb yuritiladigan soʻzlar doimo reduplikativ soʻz hisoblanmaydi.

«Takror» deganda nafaqat maʼlum bir soʻzning takrorlanib kelishi, balki qaytariq (takrorlanadigan yoki takrorlangan ibora, gap va shu kabilar) ham tushuniladi⁸. Barcha “takroriy” deb yuritiladigan soʻzlar doimo reduplikativ soʻz hisoblanmaydi. Masalan, “takroriy feʼl” deganda takrorlanadigan harakatni ifodalovchi feʼl anglashiladi: “tepkilanmoq”, “tortqilamoq” kabi⁹. “Reduplikativ feʼl” esa bir feʼlning qisman yoki toʻliq ikkilangan shaklini bildiradi: “yayrab-yayrab” (oʻynamoq). Shuningdek, takror ayni soʻzning sintaktik birlik sifatida ikki va undan ortiq holda qoʻllanilishini ham ifodalaydi¹⁰.

D.E.Rozental, M.A.Telenkovaning «Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov» kitobida reduplikatsiyaga doir «takror» deb izoh beriladi¹¹. “Takror” deganda maʼlum bir soʻz negizining yoki butun soʻzning takroriy holda

⁷ Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –T.: Oʻqituvchi, 1989. –B.26.

⁸ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. –M.: Rus tili, 1981. T.2. –B.110.

⁹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. –M.: Rus tili, 1981. T.2. –B.110-111.

¹⁰ Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. –T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.101.

¹¹ Розентал Д.Е., Теленкова М.А. Словар-справочник лингвистических терминов. –М.:Наука, 1989. – C.286.

qo‘llanilishi natijasida so‘zlarning, frazeologik birliklarning, tasvirlovchi shakllarning yasash usullaridan biri tushuniladi¹².

Takrorning bir necha turi mavjud. Bular grammatik takror, taqlidiy takror, leksik takror va uslubiy takror.

“Grammatik takror” deganda grammatik ma’noni ifodalash, so‘z shakllarini yasash usullari tushuniladi. Ushbu usullarga sintetik, analitik va gibrid (aralash) usullar kiradi.

“Taqlidiy takror” – olamdagi jonli va jonsiz predmetlar asosiga, narsalarning harakati va obraziga taqlid qilish orqali yuzaga keluvchi so‘zlar tushuniladi.

“Leksik takror”da so‘zlarning takrori:

1. Hodisalar va predmetlarning ko‘pligini ifodalash uchun;
2. Harakatni, predmetning sifatini, hususiyatini kuchaytirish uchun;
3. Hatti-harakat davomiyligini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.

Ushbu takrorda ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida so‘zlarning gapda bir necha marta qaytarilishi tushuniladi.

Reduplikatsiya haqida shuningdek “Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar” kitobida: “Reduplikatsiya – bu fonomorfologik hodisa bo‘lib, uning “to‘liqsiz” (so‘zning faqat bir bo‘g‘ini takrorlanadi) va “to‘liq” (so‘zning butun negizi takrorlanadi) ko‘rinishlari mavjud¹³” – deyilgan.

N.M.Shanskiyning “Osnovi slovoobrazovatel’nogo analiza” kitobida : “So‘zning takrori nafaqat so‘z ma’nosini kuchaytirishga qaratilgan o‘ziga xos uslubiy usul, balki yangi so‘z “yasash usullaridan biri hamdir¹⁴” – deb yozilgan.

V.L.Nemchenko: “Reduplikatsiya deganda, so‘z yoki so‘z negizining takrori natijasida murakkab so‘zlarni vujudga keltiruvchi so‘z yasash usuli tushuniladi¹⁵”, – deb ta’rif beradi.

¹² Ko‘rsatilgan lug‘at. –B.288.

¹³ Лингвистический энциклопедический словарь. 2-издание, дополненное. –М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. –С.408.

¹⁴ Шанский Н.М. Основы словообразовательного анализа. –М.: Учпедиз., 1953. –С.11.

¹⁵ Немченко В.Н. Основные понятия словообразования в терминах. –Красноярск, 1985. –С.78.

V.L.Gorelovning “Leksikologiya kitayskogo yazika” kitobida “Reduplikatsiya soʻz yasash usullaridan biri boʻlib, soʻz morfemozining takrorlanishidan vujudga keladi¹⁶”, - deb taʼkidlab oʻtadi.

Mashhur rus hindshunos olimi A.S.Barxudarovning “Slovoobrazovanie v xindi” kitobida otlar va sonlarning takrori koʻplik maʼnosini bildirishi mumkin¹⁷ – deyilgan. A.S.Barxudarovning fikricha, soʻzlarning takrori gaplarning mazmun mohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Biz malakaviy ilmiy ishimizga tanlangan reduplikatsiya mavzuini yoritishda asosan mashhur rus hindshunos olimi Z.M. Dimshits va hind tilshunos olimi K.Guru fikrlariga tayanishni maʼqul deb topdik.

1.2. Rus va hind tilshunos olimlari talqinida reduplikatsiyaning oʻziga xos ifodalanish xususiyatlari doir nazariy qarashlar

Z.M. Dimshits fikricha reduplikatsiya ifoda planida yaqqol ajralib turadi. Tarkibiy planda takrorlanayotgan soʻzning konkret maʼnosini aniqlaydi va kuchaytiradi va kontekstdan kelib chiqqan holda toʻliqlik, butunlik, kichraytirish, koʻplik dis-v kabi qoʻshimcha maʼnolarni ifodalaydi¹⁸.

Z.M.Dimshitsning taʼkidlashicha, hindiy tilida takrorlar yaʼni reduplikatsiyalarning uch hil koʻrinishi mavjud:

1. Toʻliq reduplikatsiya
2. Toʻliqsiz reduplikatsiya
3. Juft birikmalar

Olim hindiy tilidagi reduplikatsiyalar etimologik jihatda ham bir hil elementdan yaʼni bir hil komponentdan, ham turli komponentlardan tuzilgan boʻlishi, yaʼni gibril boʻlishi mumkinligini aytib oʻtadi.

¹⁶ Горелов В.И. Лексикология китайского языка. –М.: Прсвещение, 1984. –С.85.

¹⁷ Бархударов А.С. Словообразование в хинди. –М.: Просвещение, 1963. –С.54.

¹⁸ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986. –С. 71.

1. Rupya-peysa (hindcha), mel- jol (hindcha), rang-ruup (sankritcha), laalan-pallan (sankritcha), sahii-salaamat (arabcha), jafaa-kafaa (arabcha).

2. Sukx-cheyn (sankritcha va arabcha), sar-maath (forscha va hindcha), mehnat-mazduurii (arabcha va forscha), top-talvaar (turkcha va hindcha).

Reduplikatsiyalar deyarli barcha so'z turkumlari vazifasida qo'llaniladi. To'liq reduplikatsiya asosan ko'plikni, butunlik, ko'p karralikni hamda distributik kabi ma'nolarni ifoda etishi uchun qo'llaniladi. Masalan:

jagah-jagah "joylarda", "hamma joyda".

ghar-ghar "uyma-uy", "har bir uy", "hamma uylar"

samay-samay "vaqti vaqti bilan"

baar-baar "takror va takror", "tez-tez"

1) Mohahjadaaro mei jagah-jagah pakke hauz bhii milte hai

- Mohenjadaroda joylarda tosh hovuzlar ham uchrab turadi.

2) Ham ne us se is ke baare mei baar- baar kahaa.

- Biz unga bu haqda qayta-qayta aytdik¹⁹.

To'liq reduplikatsiya so'zining fonetik jihatdan o'zgarishsiz to'liq takrorlanishga aytiladi. Bundan tashqari to'liq reduplikatsiyalarning yasallishida (ba-) va (prati-) old qo'shimchalari va (par) ort ko'makchalaridan ham foydalaniladi. Masalan:

ro'z ba ro'z – "kundan-kunga"

saal ba saal – "yildan-yilga"

din par din, din ba din, din prati din – "kundan kun"

Qadam par qadam "har qadamda", "izma-iz"

1) Samay par samay yahan aisi ghatnayan hua karti hai

Vaqti-vaqti bilan bu yerda shunday voqealar sodir bo'lib turadi.

To'liq reduplikatsiyaning *-hii* yuklama bilan kelishi ma'noni kuchaytiradi, takrorilikni anglatadi²⁰. Masalan:

¹⁹ Дымищиз З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.:Наука,1986. С. 71-72.

1. *Paani hii paanii* “hamma yo’q suv”, “faqat suv”
2. *Vijay hii Vijay* “faqat ga’laba”

1) *Jaare mei wahan chaaron taraf barf hii barf hotii hai.*

- Qishda u yerda hamma yoq qor bo’ladi.

To’liqsiz reduplikatsiya - takrorining shunday turiki undagi komponentlardan biri mustaqil holda ishlatilmaydi, balki faqat ma’noni kuchaytiradi. Masalan:

adlaa – badlaa “almashuv”

aros – paros “qo’shnilik”

ak – bak – “gap sotish” va h.k.

Bu misollardagi birinchi komponent mustaqil holda qo’llanilmaydi, balki ikkinchi komponentning leksik ma’nosini kuchaytirishga hizmat qiladi, ya’ni ushbu reduplikatsiv birliklar ma’noga ega komponentlarning kuchaytirilishi natijasida hosil bo’lgan.

Shuningdek, ikkinchi komponent hech qanday ma’no anglatmaydigan va mustaqil holda qo’llanilmaydigan reduplikativ birliklar ham mavjud. Masalan: *puuchh- taachh* – “talab” (trebovanie); *dhuum – dhaam* - “hursandchilik” va h.k.

Reduplikatsiv birliklar orasida shunday birliklar ham mavjudki, ulardagi birinchi komponentning boshida keladigan undoshlar ikkinchi komponentning boshida *s*, *w*, *m* harflariga almashadi, yoki butunlay g’oyib bo’ladi.

Masalan: *khaanaa – waanaa*, “ovqat - povqat”

rotii – wotii “non - pon”

paanii – waanii “suv - puv”

chitthii - mitthii “xat - pat”

juutaa – uuta “oyoq-kiyim” va h.k.

To’liqsiz reduplikatsiyalar ma’noni kuchaytirishdan tashqari umumiylik hamda ko’plikni ham anglatishi mumkin. Masalan:

²⁰ O’sha asar. –B.72.

1. *Mere dard-ard kuchh nahin.*
– Meni hech qayerim og’rimayapti.
2. *Sir-wir mei dard hai kyaa?*
– Nima o’t-beting og’riyaptimi?

Juft birikmalar reduplikatsiyaning uchinchi turi bo’lib, unda so’zlarning sinonimlari hamda antonimlari takror bo’lib keladi.

Sinonim juft birikmalar ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bo’lgan bir ma’noli so’zlarning birikib kelishiga aytiladi.

Masalan: *mel-milaap* “uchrashuv”, “do’stona munosabatlar”;
dekh- bhaal “kuzatuv”, “himoya”, “g’amho’rlik”;
maar- piit “qotillik”, “hunrezlik”;
so’ch- vichaar “fikir – o’y”.

Antonym juft birikmalar ma’no jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan so’zlarning birikib kelishiga aytiladi.

Masalan: *aaj- kal* “bugun - erta”, “bugungi kunda”;
len- den “ol - ber”, “oldi - berdi”, “iqtisodiy kelishuv”;
aagaa – piichha “old - orqa”, “ikkilanish”, “qat’iyatsizlik”;
uthak – beythak “turish – o’tirish”, “hayajonlanish”, “havotirlanish”.

Yuqoridagi misollardan ko’rinib turibdiki, hindiy tilidagi reduplikatsiyalar nafaqat so’z ma’nolarini kuchaytirib keladi, balki yangi bir ma’noni ham anglatishi mumkin.

Z.M. Dimshits hindiy tilidagi reduplikatsiyalarni morfologik jihatdan tahlil qilganda, ularning aksariyati deyarli barcha so’z turkumlarda uchrashi mumkinligini aytib o’tgan.

Sifatlarning reduplikatsiyasi ularning ifodaliyligi va kuchaytirishni ta’minlaydi. Masalan: *nayii – nayii pattiyan* “yap – yangi barglar”;

chho’tii – chho’tii larkii “kichkinagina qizaloq”;

bare –bare ghar “katta – katta uylar”;

Sifatlarning reduplikatsiyasi asosan gapda aniqlovchi vazifasida keladi.

Ot, son hamda olmoshlarning reduplikatsiyasi ajratib ko'rsatish ma'nolarida keladi. Masalan: jagah – jagah “joylarda”;

baar – baar “takror va takror”;

ghar – ghar “uyma - uy”;

ek – ek “birgina”, “bittalab”;

sao – sao “yuzlab”;

1. Jagah – jagah kaarxaane khol diye gaye.

– Joylarda korxonalar ochilgan.

2. Us ne ek – ek baat ke sao – sao uttar diye.

– U birgina gapga yuzlab javob qaytardi.

Ravishlarning reduplikatsiyasi ma'noni kuchaytirish hamda ifodaliylikni anglatadi. Masalan: aas – paas “atrofda”, “yaqinida”;

dhire – dhire “asta – sekin”;

chhup – chhaap “jimgina”;

paas – paas “yonma - yon”

1. Us ne paas – paas ghar banaa diyaa.

– U uyni yonma – yon qurdi.

Fe'l so'z turkumidan uchraydigan reduplikatsiyasilar uzoq davomiylik hamda uzluksizlikni anglatadi. Masalan: aataa – jaataa “mehmon”;

aanaa – jaanaa “qatnashmoq”;

charha – barha “rivojlangan”;

K.Guru hindiy tilidagi reduplikatsiyalarni o'rganganda ularni qo'shma murakkab so'zlar deb hisoblab, asosan murakkab so'zlar kategoriyasiga mansubligini aytib o'tadi. U reduplikatsiyalarni o'rganganda ularni 3 guruhga ajratadi.

1. To'liq reduslikatsiya.

2. To'liqsiz (qisman) reduplikatsiya.

3. Taqlidiy reduplikatsiyalar.

To'liq reduplikatsiya deb bir so'zning 2 yoki 3 marotaba takrorlanishiga aytiladi. Masalan: Desh – desh “ turli mamlakatlar”

Chalte – chalte “ yura – yura”

Jay – jay – jay “ yashasin “

Eslatma : reduplikatsiyalarni hosil qilishda birinchi so'zdan so'ng “ 2 ” raqamini yozib qo'yish hato hisoblanadi. Masalan:

~~Dhiire~~ 2²⁴

Reduplikatsiyalarni o'rganish jarayonida K. Guru ularni qaysi so'z turkumida qanday ma'nolar anglatib kelishini ham aytib o'tgan.

Reduplikativ birliklar ot bo'lib kelganda quyidagi ma'nolarni anglatadi.

a) 1) Doimiylik, ko'plik, takroriylik ma'nolarida.

Masalan:

1) Bartan tukre tukre ho' gayaa. Idish mayda bo'laklarga bo'linib ketdi .

2) Hansi hansi mei laraii ho' parii – kulib kulib janjal chiqdi .

b) 1) O'zaro aloqa ma'nosida . Masalan : Bhaaii –bhaaii ka prem – Aka ukalarning o'zaro mehri.

2) Behin – behin kii baatchiit .

– Opa – singillarning o'zaro suhbatlari.

c) Bir turga mansublik ma'nosida. Masalan:

1) Braahman – braahman kii jevnaar.

– Faqat brahmanlar uchun mehmondorchilik.

2) Larke – larke yahan beythe hain.

– Bu yerda faqat o'g'il bolalar o'tirdilar.

d) Farqlash – ajratib ko'rsatish ma'nosida.

Masalan :

1) Baat – baat mei bhet hai.

– Har bir ish farqlanadi.

²⁴ Гурзу К. Грамматика хинди. Часть II. Пер. С хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. Под ред. и с предисл. проф. Б.А.Ларина. -М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1962. –С.302.

2) Rang – rang ke phuul.

– Rang – barang gullar.

Reduplikativ birliklar sifat bo'lib kelganda quyidagi ma'nolarni anglatadi :

a) Turlilik hamda bir turga mansublik ma'nosida.

1) Anuthe – anuthe khel.

– Noananaviy o'yinlar.

2) Bare –bare logon ko' kursii dii gaii chhote – chhote larke alag bithaye gaye.

– Hurmatli shaxslar kursilarga o'tqizildilar, yosh bolalarning barchasi esa alohida o'tqizildilar.

b) Yuqori sifatni anglatishda. Masalan :

1) Kaale – kaale kesh.

– Qop qora sochlar.

2) Achhe – achhe kapre .

– Juda yaxshi ko'ylaklar.

c) Ma'noni kuchaytirishda. Masalan :

Piika –piika svaad.

– Ancha bemaza.

Fe'lning reduplikatsiyasi quyidagi ma'nolarni anglatadi.

a) Qat'iylik ma'nosini. Masalan:

1) Mai ye kaam karungaa – karungaa aor phiir korunga.

– Men bu ishni albatta bajaraman.

2) vo' ayegaa – ayegaa aor phir ayegaa.

– U albatta keladi.

b) Ish – harakatining davomiyligi ma'nosini: Masalan:

Larka chalte – chalte thak gayaa.

– Bola yura – yura charchadi.

c) Davr, vaqt ma'nosini: Masalan:

Vahan pahunchte – pahunchte raat ho' jayegii.

– U yerga yetib olgunimizcha tun bo'ldi

d) Ho'te – ho'te reduplikativ birligi “asta - sekin” ma'nosini anglatadi.

Ravishlar reduplikatsiyasi ish harakatining takroriyligini, mazmunini kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Masalan:

Dhiire – dhiire “asta – sekin”; kabhii – kabhii “ba'zan”;

Paas – paas “yonginasida”; pahle – pahle “eng avvalo”;

Ravishlar takrori ort ko'makchi tarzida qo'llanilganda ma'noni kuchaytiradi.

Masalan:

Sarak ke paas - paas – Ko'chaning yonginasida

Naokar ke saath – saath – hizmatchi bilan birgalikda

To'liqsiz reduplikatsiyalar K.Guruning fikricha uch hil usulda hosil qilinishi mumkin.

1. Ikki mustaqil bir – biriga hamohang bo'lgan so'zlarning birikishi natijasida.
2. Biri mustaqil ma'noga ega va biri o'z mustaqil ma'nosini yo'qotgan so'zlarning birikishi natijasida.
3. Har ikkalasi ham o'z mustaqil ma'nosini yo'qotgan so'zlarning birikishi natijasida

Ot: baal – bachche “bolalar”; daal – daliyaa “ozuqa”; kaam – kaaj “ish”.

Sifat: bharaa – puuraa “to'la”

Fe'l: samajhnaa – buujhnaa “tushunmoq”; so'chnaa- vicharnaa “fikrlamoq”

Ravish: yahaan – wahaan “u yer bu yerda”; daayen – baayen “o'ngu – so'l”.

Ot: puuchh- taachh “talab”; baat – chiit – “suhbat”

Sifat: siidha – saadha “oddiy”; theik – thaak “to'g'ri”.

Ravish: aamne – saamne “yuzma - yuz”; aas – paas “yaqinida”.

Masalan: at – sat “g'iybat”; agra – bagra “gap sotish”;

Qisman reduplikatsiyalar asosan og'zaki nutqda keng qo'llaniladi. Shuningdek, olimlar va ziyoli shaxslar ham uni ko'p qo'llaydilar. So'zlashuv nutqiga asoslangan romanlar va dramatik asarlarda ushbu birliklarning qo'llanishi ulardagi tabiiylik va jozibadorlikni oshirishga hizmat qiladi.

Mazkur bobni yozishda, jahon tilshunosligida reduplikatsiyaga oid ilmiy-nazariy qarashlar atroflicha o'rganildi. Xususan, mavzuga kengroq yondashish maqsadida rus va hind tilshunos olimlarining reduplikativ birliklarga oid fikr-mulohazalari tahlil qilindi. Unga ko'ra, rus tilshunos olimi Z.M.Dimshits reduplikatsiyalarning 3-turini juft birikmalar deb bergan bo'lsa, K.Guru taqlid so'zlar deb nomlagan. Shuningdek, Z.M.Dimshits juft birikmalarning antonimlik va sinonimlik hususiyatlarini ham aytib o'tadi. Bundan tashqari Dimshits reduplikatsiyalarning ma'nodor va ma'noga ega emas komponentlarining ta'rifini ham aytib o'tadi. Bu ikki olimning fikrlaridagi o'xshash jihatlariga to'htaladigan bo'lsak, ularning har ikkalasi ham hindiy tilidagi reduplikativ birliklar gapdagi mazmunning chiroyli bo'lishi hamda ma'noning kuchayishini ta'minlaydi va og'zaki nutqda keng qo'llanilishini ta'kidlab o'tadilar.

II BOB

HINDIY TILI LEKSIKASIDAGI REDUPLIKATIV BIRLIKLARNING LINGVISTIK TAHLILI

2.1. Hindiyl tili leksik qatlamidagi reduplikativ birliklarning etimologik tahlili

Bizga ma'lumki, horijiy tillarni o'rganishda, ularga doir ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda leksikologiyaning etimologiya bo'limi muhim ahamiyat kasb etadi. Etimologiya so'zning kelib chiqishi, tarixi masalalari bilan shug'ullanuvchi bo'limdir. Shu bilan birga etimologiya so'zi har ikki tomonni, ya'ni shakli va ma'nosini hisobga oladi. Ma'lumki hindiy tilida so'zlar etimologik jihatdan 4 guruhga bo'linadi.

1. Tatsama. (ya'ni "xuddi o'sha") Sanskrit tilidan bevosita adabiy yo'l orqali o'zlashtirilgan va asosan tub o'z til so'zlari singari qadimgi imloviy shaklini saqlab qolgan so'zlar bu guruhga oiddir.

2. Tadbhava. Bu tipdagi so'zlar uzoq davom etgan tovush o'zgarishlari mobaynida prakrit va apabharansha bosqichlaridan o'tib kelgan va mazkur tillar tarkibidagi asosiy qismni tashkil etgan mumtoz hind-oriy tillari sanskritdan kelib chiqqan deb tan olinishiga ko'ra, bu guruh so'zlari *tadbhava*, ya'ni "undan paydo bo'lgan" deb ataladi.

3. Deshiy. ("mahalliy", "yerli"). Bular asosan sanskrit bilan taqqoslanganda, bu til tizimiga yot bo'lib, ba'zilar dravid va munda sarchashmalari, qolganlari esa kelib chiqishi noma'lum bo'lgan so'zlardir.

4. Videshiy so'zlari deyilganda esa hindiy tiliga arab, fors, ingliz va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar kiradi²².

²² Shomarov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. I qism. -T.: ToshDSH nashriyoti, 2003. -B. 39.

Hindiy tilidagi reduplikativ birliklarni etimologik jihatdan tahlil qilishimizda asosiy manbaa sifatida 1 tomli hindiycha – ruscha²³ lug’atdan foydalandik. Ushbu lug’atda reduplikativ birliklar deb belgi qo’yilgan ja’mi 600 dan ortiq reduplikatsiyalar borligi aniqlandi va kartochkalarga to’plandi.

Lug’at asosida to’plangan reduplikativ birliklar etimologik jihatdan tahlil qilindi va u quyidagicha jadval ko’rinishini oldi.

Jadval №1

Guruxlar	Reduplikativ birliklar	Soni	Foizi
Tadbhava	Rupya – peysa, mel – milap, mel – jol, lat – ghunsa, laguaa- bhaguaa, akelaa – dukelaa, alag – thalag, aar – paar, baap – maan, bhagaa – bhaag, maaraa – maar, ghaas – paat, khel – kuud, kahaa – sunaa;	347	57,5%
Tatsama	Anunay – vinay, annazal, aashaa – mrashaa, haav – shav, rang – runp, laalan – paalan, has – parihaas, yantr – saadhan;	100	16,5%
Gibridlar	Sukh – cheyn, saaf – suthra, raazi – xushii, hansii – hushii, haq – naahaq, mootaa – taaza, mel – mulaahazaa, siil – muhr, mehnat – mazduurii;	93	15,4%
Videshiy	Sahii – salamat, labaa – lab, rafaa – dafaa, chaar – naachaar, zafaa – kafaa, maal – masaala, miyaan – biibii va hokazo.	63	10,4%

Hindiy tilidagi reduplikativ birliklarni etimologik jihatdan tahlil qilganimizda *tadbhava* guruhiga oid bo’lgan so’zlar ko’pchilikni, ya’ni 347 ta

²³ Русско - хинди словарь. Под ред. В.М.Бескровного. -М.: ГИС, 1957. -С. 376.

misoldan iborat bo'lib, ular 57,5% ni tashkil qiladi va tahlil jarayonida birinchi o'rinni egallashi aniqlandi.

Ikkinchi o'rinni esa tatsama so'zlari egallagan bo'lib, ularning soni 603 tadan 100 tani, yani 16,5% ni tashkil qiladi.

Keyingi o'rinni gibridlar guruhiga oid reduplikativ birliklar egallagan bo'lib, ularning soni 603 tadan 93 ta, yani 15,4% dan iboratdir.

Ohirgi, yani to'rtinchi o'rinni videshiy guruhiga oid reduplikativ birliklar tashkil etadi. Ushbu guruhda 603 ta reduplikativ birliklardan iborat 63 ta, ya'ni 10,4% birliklar mansub ekanligi aniqlandi.

Garchi ingliz so'zlari og'zaki nutqda ko'p qo'llanilsa-da, ushbu jadvalimizdagi mahsuldor qoliplardan o'rin egallay olmadi. Chunki, badiiy adabiyot va lug'atda bu so'zlar juda kamchilikni tashkil etdi.

Videshiy so'zlarni o'z navbatida 3 guruhga bo'lishimiz mumkin. Ular:

1. *Forscha so'zlar*. Ularning soni 39 ta, ya'ni 6,4 % ni tashkil etdi.

Masalan: Sarasaamaan, rang – rog'an, labaalaab va boshqalar.

2. *Arabcha so'zlar*. Ularning soni 23 tadan iborat bo'lib, 3,8 % ni tashkil etdi.

Jumladan: Shaan – shaokat, saahab – musahib, sahi – salaamat va boshqalar.

3. *Inglizcha so'zlar*. Ular bor – yo'g'I 1 dona bo'lib, 0,16 % ni tashkil qildi.

Masalan: Kaalar - nektaaii

Hindiy tilidagi reduplikatsiyalarni etimologik jihatdan tahlil qilish jarayonida gibridlar eng mahsuldor qolipdan o'rin egallamagan bo'lsa-da, bizning tahminimizdan ko'proq miqdorni tashkil etdi. Bu esa hindiy tilidagi gibridlarga reduplikatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, turli hil modellar ham yasalishini taqozo etdi.

1. Sukx-cheyn – baxt-saodat, hotirjamlik.

S + H

2. Dhan-daolat – boylik.

S + A

3. Maar pech – mug'ombirlik.

H + P

4. Naach rang – musiqa, ashula va raqs.

H + S

5. bhent-mulaaqat – uchrashuv.

H + A

6. Hansii-dillagii – hazil.

H + P + H

7. Sar-maath – bosh.

P + H

8. Xuun-maans – qon -qarindosh.

P + S

9. Xuun-xarabii – xunrezlik.

P + A

10. Harbe-hathiyar – qurol, qurollanish.

A + H

11. Mehnat-mazdunrii – ish, mehnat.

A + P

12. Haq-naahaq – hech narsadan-hech narsa.

A + P + A

13. Siil-muhr – muhr.

E + P

14. Itr-teyl – atir, gul ekstraktlari.

A + S

15. Top-talvaar – qurol-yaroq.

T + H

Yuzaga kelgan modellar qatoridan mahsuldor qoliplarni aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Unga ko'ra fors so'zlari hamda arab so'zlari prepozitsiya holatida kelgan gibrid reduplikatsiyalar ko'proq kuzatildi. Ularning umumiy soni 52 ta bo'lib, umumiy gibrid reduplikatsiyalarning 55,9 % ini tashkil etdi.

Hind so'zlari prepozitsiya holatida kelgan gibrid reduplikatsiyalar 93 tadan 23 ta bo'lib, 24,7% ni tashkil etdi.


Sanskrit so'zlari prepozitsiya holatida kelgan gibrid reduplikativ birliklar 16 ta, ya'ni 17,2 % dan iborat bo'ldi.

Turk va ingliz so'zlari prepozitsiya holatida kelganlari eng kamchilikni tashkil qilib, har birining soni 1 tadan, ya'ni 1,07% dan iborat bo'ldi.

Jadval №2

Gibrid reduplikatsiyalarning prepozitsiya holatidagi modellar ko'rinishi va ularning tahlili

№	Modellar	Soni	Foizi
1	A + (H, P, S, P + A)	26	27,9%
2	P + (H, S, A)	26	27,9%
3	H+ (P, S, A, P + H)	23	24,7%
4	S + (H, A)	16	17,2%
5	E + P	1	1,07%
6	T + H	1	1,07%



Gibrid reduplikatsiyalarning postpozitsiya holatiga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, hindiycha so'zlar ushbu holatda kelgan modellarni 44 tasini, ya'ni 47,3% ni tashkil etib, eng mahsuldor qolipga aylandi.

2.2. Hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikativ birliklarning struktur hamda so'z turkumlariga oid tahlili

So'z yasalihi to'g'risida gap borganida tilshunoslik sohasida bu tushuncha ikki ma'noda qo'llaniladi. Jumladan, U.Tursunov, A.Muhtorov, Sh. Rahmatullayevlar o'z asarlarida quyidagilarni ta'kidlaydi:

1. Tilda yangi so'z hosil qilish jarayoni;
2. Tilshunoslikning so'z yasalihi tizimini o'rganuvchi bo'lim sifatida qaraladi.²⁴

Yuqoridagi fikrlarning birinchi qismi aynan til bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi so'zlarning yasalihini tilshunoslik fani doirasida talqin qilinadi. Bu borada yana shunday fikrlar ham mavjudki, ularga ko'ra so'zlarning tarkibi bilan ularning yasalihi usullari yahlit bo'lim sifatida qaraladi.

Umuman so'z yasalihini o'rganish so'z yasalihi jarayonini belgilash, uning qonuniyatlarini to'g'ri tushunish imkoniyatini beradi. So'z yasalihi tizimi

²⁴ Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T., 1992. –B.198.

morfemika bilan uzviy bog'langan. Chunki so'zning ma'noli qismlari morfemalar (o'zak morfema va affiksial morfema) tilda yangi so'z hosil qilishning eng muhim elementlaridan hisoblanadi.

Hindiy tili an'analariga ko'ra tarkibiy jihatdan so'zlarning tasnifi quyidagicha.

- 1) Tub so'zlar;
- 2) Yasama so'zlar.

Yasama so'zlar o'z navbatida sodda va qo'shma so'zlarga bo'linadi.

Hindiy tili an'anaviy tasnifiga ko'ra qo'shma so'zlar quyidagi to'rtta asosiy guruhga bo'linadi. K.Guruning "Grammatika xindi"dagi ta'rifiga ko'ra, murakkab so'z ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan iborat bo'ladi.²⁵

- 1) Avyayibhava so'zlari;
- 2) Tatprusha so'zlari;
- 3) Dvandva so'zlari;
- 4) Bahuvrihi so'zlari.

Qo'shma so'zlarning yuqorida qayd etilgan to'rtta turlari asosiy hisoblanib, ularning har birining doirasida qo'shimcha turlar ham mavjud.

Ikki komponentli qo'shma so'zlarda ularning bo'laklari orasidagi munosabatga ko'ra tasnif etiladi. Ya'ni ularning hokim yoki tobe holida bo'lishlari asosiy o'rin tutadi. Birinchi bo'lagi asosiy (hokim) bo'lgan qo'shma so'zlar *avyaybhava* so'zlari deb ataladi.

Tatprusha- esa ikkinchi bo'lagi asosiy (hokim) so'zlardir. Bunday birikmalarda odatda birinchi bo'lak ot yoki sifatdan tashkil topgan bo'ladi.

Dvandva - qo'shma so'zning har ikki bo'lagi mustaqil bo'lgan so'zlardir.

Bahuvrihi - qo'shma so'zning birorta ham bo'lagi mustaqil bo'lmay, ular yahlit holda biror otga nisbatan aniqlovchi vazifasini bajaradi.

²⁵ Гурзу К. Грамматика хинди. Часть II. Пер. С хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. Под ред. и с предисл. проф. Б.А.Ларина. -М.: Изд-во иностранной лит-ри, 1962. -С.275.

Tatprusha so'zlarining qo'shimcha guruhi bo'limi *dvigu* - ya'ni tobe so'z sonlardan iborat bo'lgan so'zlar ham mavjudligi aniqlandi.

Hindiy tilida so'z yasallishining quyidagi turlari mavjud:

1. Suffiksatsiya va prefiksatsiya;
2. So'zlarni yoki negizlarni qo'shish (murakkab so'zlar);
3. Juft so'zlar birikmasi (juft so'zlar):
 - a) sinonimik (chog'ishtirma)
 - b) antonimik (qarama - qarshi)
4. So'zlarni takrorlash (takror so'zlar):
 - a) Tovush takrori, yoki takroriy so'zning ikkinchi qismida, ba'zi hollarda birinchi qismida yoki negizdagi o'zgarishlar;
 - b) Hech qanday fonetik o'zgarishlarsiz, so'zlarni oddiy takrorlanishi, ya'ni tautologiya;
5. Negiz yoki o'zakdagi tovushlarning almashishi (ichki fleksiya):
 - a) Negiz unli tovushining almashishi;
 - b) Negiz undosh tovushining almashishi (ko'pincha bu usullar suffiksning reduksiyasi bilan belgilanadi, ya'ni "nollashgan" morfema bo'lib keladi).
6. Leksikalizatsiya:
 - a) So'zlarning sintaktik qorishmasi;
 - b) So'zning grammatik shakllari (odatda sanskritdan o'zlashgan so'zlar).²⁶

Tilda so'z yasallishining semantik usullaridan boshqa (misol uchun ma'no siljishidan boshqa) yuqorida qayd etilgan usullarni morfologik, sintaktik, leksik va fonetik turlarga ajratish mumkin bo'ladi. Hindiy tilida ular orasida morfologik usul eng ko'p uchraydi. Bu usul tilning yasallish tizimining asosi hisoblanadi. Qolgan usullar esa qo'shimcha, to'ldirib turuvchi ikkinchi darajali bo'lib keladi.

Ushbu usullarning turli qorishmalar shakllarida ma'lum bir vaziyatdan kelib chiqqan holda u yoki bu usul qo'llanilishi mumkin, lekin ular orasida eng ko'p

²⁶ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986. -С.84-87.

uchraydigani bu morfologo-sintaktik usul hisoblanadi. So'z yasallshining ushbu qorishiq morfologo-sintaktik usuli hindiy tilida turli xil qo'shma so'zlar orqali ifodalanadi.

Yuqoridagi fikrlarni jamlagan holda, zamonaviy hindiy tilida so'z yasallshining quyidagi usullarini ko'rsatish mumkin:

1. Affiksatsiya;
2. So'z qo'shish usuli;
3. Konversiya;
4. Reduplikatsiya;
5. Ma'no siljishi.²⁷

Rus hindshunos olimi Z. M. Dimshitsning ma'lumot berishicha, hindiy tilida so'z yasallshida eng hosildor usul bu affiksatsiyadir²⁸.

Mazkur bo'limning yoritishda to'plangan jami 603 ta kartochkalardagi reduplikatsiyaga xos leksik birliklar tahlilga tortildi. Ularning deyarli barchasi qo'shma-murakkab so'zlarga (ma'no kuchaytiruvchi so'zlarga) oid deb topildi. Bu ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishimizda ularni qaysi so'z turkumiga oid ekanligini aniqlab, taxlilga tortishini ham lozim deb topdik.

Tadqiqot olib borilish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, jamlangan jamisi 603 ta reduplikatsiyaga xos leksik-birliklardan 43 tasi (73,3 %) ot so'z turkumiga oid deb topildi. E'tiborli jihati shundaki, ularning aksariyati muzakkar hamda muannas jinslarga xosligi bilan birga, bir ma'noli (monoselmiya) va ko'p ma'noli (poliseliya) xususiyatlarga ham ega ekanligi aniqlandi. Jumladan: otlarning bir ma'noga ega bo'lgan reduplikativ birliklari umumiy reduplikatsiyalar (603 ta) dan 285 ta, ya'ni 47,2% ni tashkil etadi. Shuningdek otlarning ko'p ma'noga ega bo'lgan reduplikatsiyalari esa 151 ta ya'ni 25,04% dan iborat bo'ladi.

Jadval №3

²⁷ Дымищц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука,1986.84-87.

²⁸ O'sha manba. 84-bet.

Monosemiya hodisasiga xos reduplikativ birliklar	Foiz ko'rsatkichi	Polisemiya hodisasiga xos reduplikativ birliklar
Sar – math (bosh) muzakkar	285>151 47,2% >25,04%	Halaa – bhalaa 1(qaror) 2 (natija) muzakkar
Hisaab – kitaab (xisob – kitob daftari) muzakkar		Sukh – cheyn 1 (baxt – saodat) 2 (hotirjamlik) muzakkar
Vidhi – vidhaan (qonunlar) muzakkar		Saadhu – sant 1 (diniy) 2 (avliyo) muzakkar
Ruup – rang (shakl, ko'rinish) muzakkar		Laabh – haani 1 (foyda va zarar) 2 (yaxshilik va yomonlik) 3 (qiziqishlar) muannas
Mehnat – mazduurii (ish, mehnat) muannas		Aab – havaa 1 (ob – havo) 2 (atmosfera) muannas
Saag– sabzii (sabzavotlar) muannas		

Bundan tashqari otlarning muannas hamda muzakkar jinslarini tashkil etuvchi reduplaksiv birliklarini ham tahlil qiladigan bo'lsak, ularning miqdori muannas jinslarda ham, muzakkar jinslarda ham 36,15 % ni tashkil etayotgani ma'lum bo'ldi.

Otlarning reduplaksiv birliklarini tahlil qilish jarayonida muzakkar va muannas jinslardagi monosemiya va polisemiya hususiyatli otlar ham e'tiborimizni jalb etdi va ularni ham tahlilga tortishni lozim deb topdik.

Bir ma'noli muannas jinsdagi reduplikatsiyalar 132 ta 21,89% ni tashkil etsa, ko'p ma'noli muannas jinsdagi reduplikativ birliklar 86 ta, ya'ni 14,2% dan iborat bo'ldi. Muzakkar jinsdagi bir ma'noli reduplikatsiyalar 153 ta, ya'ni 25,3 %, ko'p ma'noli muzakkar jinsdagi reduplikatsiyalar esa 65 ta, ya'ni 10,7 % ni tashkil etganini ta'kidlash mumkin.

Miqdor jihatdan ikkinchi o'rinda sifatlar mahsuldor qolipga oid deb topildi. 603 ta misoldan 81 ta (13,4%) ni tashkil etishi aniqlandi. Shu o'rinda sifat so'z turkumiga oid reduplikatsiyalarning ham monosemiya hususiyatlari tahlil qilindi. Unga ko'ra monosemiya hususiyatiga ega bo'lgan sifatlar 44 ta (7,2%) ni tashkil etdi va polisemiya hususiyatiga ega sifatga oid reduplikatsiyalar 37 ta (6,1%) ni tashkil etdi.

Jadval № 4

Monosemiya hodisasiga xos reduplikativ birliklar	Foiz ko'rsatkichi	Polisemiya hodisasiga xos reduplikativ birliklar
Haaraa – thaakaa (charchagan)	44>37 7,2% >6,1%	Diin – hiin 1.(bechora) 2.(baxtsiz)
Laal – piilaa (jahldor)		Maalaamaal 1.(to'la – to'kis) 2.(boy)
Lukaa – chhipaa (yashirin)		Rang – birangaa 1.(rang – barang) 2.(turfa)
Rangaa – rangaayaa (bo'yalgan)		

Mahsuldorlik bo'yicha ravish reduplikatsiyalar 3-o'rinda bo'lib, 37 ta, (6,1%) ekani aniqlandi va ularning 23 tasi (3,8%) monosemiya hususiyatiga ega

reduplikatsiyalarni hamda 14 tasi (2,3%) polisemiya hususiyatiga ega reduplikatsiyalarni tashkil etdi.

Jadval № 5

Monosemiya hodisasiga xos reduplikativ birliklar	Foiz ko'rsatkichi	Polisemiya hodisasiga xos reduplikativ birliklar
Maaraamaar (juda tez)		beythe – bithaaye 1.(bekorga)
pahle – pahal (eng avvalo)		2.(hech qanday sababsiz) 3.(to'satdan)
daayen - baayen (o'ngu – so'l)	23>14	aas - paas 1.(to'la – to'kis)
der – saver (ertami – kechmi))	3,8% >2,3%	2.(boy)

Fe'l so'z turkumiga oid reduplikatsiyalarga xos leksik birliklar 31 ta bo'lib, 5,1% ni tashkil qildi va bularning barchasi faqat monosemiya hodisasigagina mansub ekani aniqlandi.

Bundan tashqari ham sifat, ham ot so'z turkumiga oid reduplikatsiyalar 11 ta (1,8%), ham ravish, ham ot so'z turkumiga oid reduplikatsiyalar 3 ta (0,49%), ham sifat, ham ravish ga oid reduplikatsiyalar 3 ta (0,49%), ham sifat, ham ravish, ham ot so'z turkumiga oid reduplikatsiyalar 1 ta (0,16%), ya'ni ozchilikni tashkil qilsada misollar orasida uchradi.

Yuqoridagi fikrlarimiz quyida keltirilgan jadvalda yaqqol o'z aksini topadi:

Jadval № 6

So'z turkum- lari	Misollar	Soni	Foizi
Ot	siil – muhr, ro'zii – rotii, shaan – shaokat, mehnat – mazduurii, havaa – paanii, riiti – rivaaj, mel – mulaahazaa, hataahat, laabh – haani, sudh – budh, larka – baalaa, rel – pel, sarokaar, halaa – bhalaa, hel – mel, saj – dhaj, aakaar – prakaar, aan – baan, chaaraa – ghaas, chaalchalam, chhuut – chhaat, nashaa – paanii va boshqalar	436	72,3 %
Sifat	napaa – tulaa, narm – garm, dublaa – patlaa, maalaa maal, akelaa – dukelaa, ine – gine, achchha – bichchha, uuncha – niichaa, eyn – meyn, eysaa – teysaa, khaalaa – uunchaa va boshqalar	81	13,4 %
Ravish	akele – dukele, ag'al – bag'al, aage – piichhe, aas – paas, go'l – go'l, chaar – naachaar, chhipaa chhipii, din – raat, daayen – baayen, der – saver, paas – pas, pahle – pahl, biichon – biich va boshqalar	37	6,1%
Fe'l	parhna – likhna, phalna – phuulna, dekhnaa – bhaalnaa, dekhnaa – sunnaa, jalnaa –	31	5,1 %

	bhunnaa, khelnaa – khaanaa, kamaanaa – dhamaanaa, kahnaa – sunaanaa va boshqalar		
Sifat, ot	uthal – puthal, chal – vichal, taav – chaav, niichaa – uunchaa, bho’laa – bhaalaa va boshqalar	11	1,8 %
Ravish, ot	hannii – xushii, raazii – xushii, aayaa – gayaa	3	0,49 %
Sifat, ravish	uttar – puurab, aonaa – paonaa, sahi – salaamat	3	0,49 %
Sifat, ravish, ot	thiik – thaak	1	0,16 %

Hindiy tili leksik qatlamdagi 603ta reduplikatsiyaga oid leksik birliklar struktur jihatdan tahlil qilinganida, ularning deyarli barchasi qo’shma-murakkab so’zlarga (ma’no kuchaytiruvchi so’zlarga) oid deb topildi va to’plangan jamiki misollar qanday so’z turkumlariga oidligi ko’rsatib berildi. Ular orasida aksariyat misollar polisemiya hodisasiga mansubligi misollar talqinida ko’rsatib berildi. Tahlil natijalari jadvalsimon ko’rinishda shakllantirildi va mahsuldor qoliplar ajratib ko’rsatildi.

2.3. Hindiy tili leksik qatlamidagi reduplikativ birliklarning tematik tahlili

Ushbu bo‘limda, jamlangan 603ta reduplikativ birliklardan bir ma’noli reduplikatsiyaga xos so’zlar tanlab olindi va ular tematik jihatdan tahlil qilinganida 15ta guruhni tashkil etdi. Olib borilgan tahlil natijalari quyidagi jadvalda shakllantirildi.

№	ГРУП	МИСОЛЛАР	СОМ	ФОНД
1	Inson tabiati va xususiyatiga oid reduplikativ birliklar	Aadar – sammaan, advaa-tadvaa, shiil-svabhav, shorya-viirya, shuur-viir, lukaa-chxipaa, ladaa-phandaa, langraa-luulaa, sanda-musandaa, rangaa-rangaayaa, achchhaa-bichchhaa, motaa-tazaa, lapak-jhapak, shaan-shaokat, aan-maan, hatta-katta, lambaa-khindchaa, adab-lihaaz.	18	13.1%
2	Iqtisod va pul bilan bog'liq reduplikativ birliklar	Suud-batta, hisaab-kitaab, mol-bhaab, liyabechi, rupyaa-peysaa, leii-puunjii, sukh-samriddhi, sonaa-chaandii, eraa-pheraa, kamanaa-dhamanaa, kray-vikray, hariib-faroxat, dham-dolat, aadaan-pradaam, aay-vyay, amadokharch, ayaat-niryaat,	17	12.4%
3	Urush janjal, qurol yaroq va o'g'rilikga oid reduplikativ birliklar	Abe-tabe, kataa-chhanii, kahaa-sunii, haathaapaaii, larnaa-jhagarnaa, hataahat, luud-khuund, vitandaa-vaad, laat-ghuunsaa, luud-khasot, saaj-sajjaa, shor-g'ul, halla-gulla, vharbe-hathiyaar, luut-paat, luut-maar.	16	11.67%
4	O'yin kulgu, hursandchilik	Aanand-mangal, aamod-pramod, haas-parihaas, lukaa-chxipii, sangiitvadya, hansii-	12	8.7%

	a oid reduplikativ birliklar	dilagii, hansii-mazaaq, hasya-vilaas, haas- vilaas, hasya-vinod, khel-kuud, gayanvadya.		
5	Faoliyat va harakatga oid reduplikativ birliklar	Seyr-sapaataa, ronaa-piitna, laag-lapet, kuudna-phandnaa, hilla-havalaa, vinay- praathnaa, shvaaso-chchxvaas, liipnaa-potnaa, ronaa-dhonaa.	10	7.2%
6	Emotsional holat va his tuyg'uga oid reduplikativ birliklar	Laal-piila, haara-thakaa, yantr-tantr, hrisht- tusht, satyaasatya, snehpriitii, laar-pyaar, raag- dvesh, jalnaa-bhunnaa.	9	6.5%
7	Narsa va buymga oid reduplikativ birliklar	Yantr-saadhan, siil-muhar, leknaa-patraa, vastraa-bhuushaan, saaj-singaar. Vesh- bhushaa, kapraa-latta, sarosaamaan, kaalaar- nektaii.	9	6.5%
8	Aloqa va rishta bilan bog'liq reduplikativ birliklar	Arosii-parosii, kachcha-bachcha, sangii- saathii, rotii-betii, mel-jol, apna-paraayaa, mel-millab, huqqaa-paanii.	8	5.8%
9	Hudud va vaqtga oid reduplikativ birliklar	Labaalab, munhaamunh, rihan-sihan, yatr-tatr, stepii-jangal, shaboroz, deshcall.	7	5.1%
10	Mehnat faoliyatiga oid reduplikativ birliklar	Harii-begaarii, shoshit-dalit, viyatha-vednaa, heys-beys, rozii-rotii, mehnat-mazduurii, kaam-kaaj, kaam-dhaam.	7	5.1%
11	Aql va u bilan bog'liq faoliyatga oid reduplikativ	Soch-vichaar, sankalp-vikalp, suujh-buujh, lekhan-bhaashan, aagaa-piichxaa, hosh- havaas.	6	4.3%

	birliklar			
12	Miditsinaka oid reduplikativ birliklar	Shiit-jvar, sar-maath, sevaa-shukruushaa, dehtaangar, anjar-panjar.	5	3.6%
13	Oziq-ovqatga oid reduplikativ birliklar	Saag-sabzi, anna-jal, ab-daanaa, saag-bhaajii, khaanaa-paanii.	5	3.6%
14	Hajm- miqdorga oid reduplikativ birliklar	Lambaa-chaoraa, rahaa-sahaa, syah-safed, kamii-beshii.	4	2.9%
15	Marosim rasm- rusmga oid reduplikativ birliklar	Shaadii-byaah, riiti-rivaaj, riiti-rasm, rasm-rivaaj.	4	2.9%

Yuqoridagi jadval natijalaridan kelib chiqqan holda biz tematik jihatdan tahlilimizni mahsuldorlik bo'yicha 3 turga ajratdik. Ular:

1. Mahsuldor qolip
2. O'rtacha miqdordagi qolip
3. Kam miqdordagi qolip (mahsuldor bo'lmagan qolip)

Shunga ko'ra birinchi, ikkinchi va uchunchi guruhlar 18 (13.1%), 17 (12.4%), 16 (11.67%) ko'rsatkichlari bilan mahsuldor qoliplardan joy oldilar va undagi eng yuqori natijani inson tabiati va hususiyatiga oid bo'lgan tematik misollar tashkil etdi.

O'rtacha miqdordagi qolipni to'rtinchi (12 ta ya'ni 8.7%), beshinchi (10 ta ya'ni 7.2%), oltinchi (9 ta ya'ni 6.5%), yettinchi (bu ham 9 ta ya'ni 6.5%) va sakkizinchi (8 ta ya'ni 5.8%) guruhlar ko'rsatilgan natijalar bilan egalladilar.

Kam miqdordagi qolip (mahsuldor bo'lmagan qolip)ni esa to'qqizinchi (7 ta 5.1%), o'ninchi (7 ta 5.1%), o'n birinchi (6 ta ya'ni 4.3%), o'n ikkinchi (5 ta ya'ni 3.6%), o'n uchunchi (5 ta ya'ni 3.6%) va o'n to'rtinchi (4 ta 2.9%), o'n beshinchi (4 ta ya'ni 2.9%) guruhlar band qildilar.

Bundan shuni anglashimiz mumkinki reduplikativ birliklar inson va uning faoliyati bilan bog'liq barcha jabxalarda o'z aksini topaoladi.

III BOB

HINDIY TILIGA XOS BADIY MATNLARDAGI REDUPLIKATIV BIRLIKLARNING SINTAGMATIK TAHLILI

3.1. Atributiv birikmaga xos reduplikativ birikmalar tahlili

Ushbu bo'limni yozishda Kamla Prasadning "Darasal"²⁹ nomli asari tanlab olinib, unda uchragan reduplikativ birliklar tahlilga tortildi. Ushbu asar hajm jihatidan 160 betdan iborat bo'lib, undagi 100 bet shartli ravishda tanlab olindi. Mazkur matnda uchragan reduplikativ birliklarga xos so'z birikmalari tahlil jarayonida quyidagi birikmalarga xos deb topildi:

1. Aributiv birikma – aniqlovchi va aniqlanishdan tuzilgan so'z birikmasi³⁰.
2. Predikativ birikma – ikki tarkibli gapning tuzilish asosini grammatik markazini tashkil etuvchi ega bilan kesim bog'lanmasi.
3. Obyektiv yoki kompletiv birikma – so'z birikmasidagi to'ldiruvchi bilan kesim orasidagi munosabatni ifodalaydi³¹.

Tahlil jarayonida hindiy tili matnida uchragan reduplikatsiyaga xos so'z birikmalarining soni 44 tani tashkil etdi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib, hindiy tilidagi reduplikativ birliklarni guruhlarga taqsimlaymiz.

1-guruh. Hindiy tili matnida reduplikatsiyalardan tashkil topgan atributiv birikmalar ja'mi 27 ta misolni tashkil etdi. Quyida biz ularni tarkibiy struktural modellarga taqsimladik. Ulardagi modellar tarkibida qaysi so'z turkumlari ifodalanganligi aniqlandi.

²⁹ K.Prasaad. Darasal. –Ilaahaabaad: Sahityavaanii, 1980.

³⁰ Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: Fan, 2002. -B.15.

³¹ O'sha lug'at. –B.81.

I model. Ushbu modelda muzakkar jinsdagi otdan tuzilgan reduplikativ birlik hamda muzakkar jinsdagi otlar ishtirok etgan bo'lib, ularning soni 4 ta misoldan iborat: daane-paanii ke sanket (K.P. 1980. 106) = daane-paanii “oziq - ovqat” (muzakkar jinsdagi otdan tuzilgan reduplikativ birlik) + ke (ort ko'makchi) + sanket “belgi” (muzakkar jinsdagi ot so'z turkumi) = “oziq – ovqat belgisi”; ghar-dvaar kaa prashna (K.P. 1980.11) = ghar-dvaar “uy-joy” (muzakkar jinsdagi otdan tuzilgan r.b.) + Raa (muzakkar jinsni anglatuvchi ort ko'makchi) + prashna muammo” (muzakkar jinsdagi o.s) = “uy – joy muammosi “ va hokazo. Modeling formulasi . $R.B (muz. J. o) + O.S . (muz . J) = A B.$

II Model. Mazkur modeldagi so'z birikmalarida muannas jinsdagi otdan tuzilgan redublikativ birlik hamda muzakkar jinsdagi otlar ishtirok etgan bo'lib ularning soni 2 ta misoldan iborat: g'aribii – amiirii kaa antar (K. P. 1980 , 61) = g'ariibii – amiirii “ boylik –u g'ariblik “ (muannas j otdan tuzilgan r. “ b) + kaa (muz .j . ort kom) + antar “ o'rta “ (muz .j. O.s) = boyliku g'ariblikning o'rtasi ; aashaa – niraashaa ke sanghrsh = aashaa – niraashaa “ ishonchsizlik “ (ms otdan tuzilgan r.b) + ke (ort ko'makchi) + “ sanghrash “ “ to'qnashuv” (mz.O.s) = “ishonchsizlikning to'qnashuvi”. Modelning formulasi $R.B. (ms.O.s) + O.s. (mz) = A.B.$

III model. Ushbu modeldagi misollar sifat so'z turkumidan tuzilgan. reduplikativ birlik hamda muzakkar jinsdagi otlardan yasalgan bo'lib, ularning soni 5tani tashkil etdi: nayaa-nayaa feyshan (K.P. 1980,53) = nayaa-nayaa “eng yangi” (R.B.(s.s.)) + feyshan “moda” (O.S. (mz.)) = “eng yangi moda”; mile-jule aacharan = mile-jule “umumiy” (R.B. (s.s.)) + aacharan “hulq atvor” (O.S. (mz)) = “umumiy hulq atvor”. Modelning formulasi $R.B. (s.s.) + O.S. (mz) = A.B.$ ko'rinishiga ega.

IV model. Mazkur modelning so'z birikmalarga ravishlar tuzilgan reduplikativ birlik va muzakkar jinsdagi otlar kiradi. Ularning soni 3 ta: alag-alag chunaav (K.P.1980, 6) = alag-alag “alohida-alohida” (R.B. (r.)) + chunaav “tanlov” (O.S. (mz)) = “alohida-alohida tanlov; alag-alag chitr (K.P. 1980, 82) = alag-alag

“alohida-alohida” (R.B. (r)) + chitr “tasvir” (O.S. (mz)) = “alohida-alohida tasvir”. Formula shakli $R.B. (r) + O.S. (mz) = A.B.$

V model. Ushbu modelga oid birikmalar tarkibida sondan yasalgan reduplikativ birlik va muzakkar jinsdagi otlarga hos soʻzlar oʻz ifodasini topgan boʻlib ularning soni 1 ta misolni tashkil etdi: ek-ek aadmii (K.P. 1980, 6) = ek-ek “birma-bir, har bir” (R.B. son) + aadmii “odam” (O.S. (mz)) = “har bir odam” formula shakli $R.B. (son) + O.S. (mz) = A.B.$

VI model. Mazkur modeldagi misollar tarkibida sondan tuzilgan reduplikativ hamda muannas jinsdagi ot ishtirok etgan. Ularning soni 2 ta misoldan iborat: ek-ek rotii (K.P. 1980,12) = ek-ek “bittadan, bittalab” (R.B. (son)) + roʻtii “non” (O.S. (ms)) = “bittadan non” formulasi $R.B. (son) + O.S. (ms) = A.B.$ shakliga xos ravishda yasalgan.

VII model. Ushbu modeldagi birikmada sifatdan tuzilgan reduplikativ birlik va muannas jinsdagi ot ishtirok etgan boʻlib ularning soni 4 ta misolni tashkil etdi: hit-ahit kii baat (K.P.1980,11) = hit-ahit “boʻlar-boʻlmas” (R.B. (s)) + Kii (ort koʻmakchi) + baat “gap” (O.S. (ms)) = “boʻlar-boʻlmas gap”. Modelning formulasi: $R.B. (s) + O.S. (ms) = A.B.$

VIII model. Mazkur modeldagi misollar tarkibida ravishdan tuzilgan reduplikativ birlik va muannas jinsdagi otlar ishtirok etgan. Ularning soni 4 ta: raat-din kii bahas (K.P. 1980,39) = raat-din “ertayu kech, kun davomida” (R.B. (r)) + Kii (ort koʻmakchi) + bahas “bahs-munozara” (O.S. (ms)) = “kun davomidagi bahs-munozara” formula shakli: $R.B. (r) + O.S. (ms) = A.B.$

IX model. Modelning tarkibi ravishdan tuzilgan reduplikativ birlik va sifatdan iborat boʻlib. Ularning soni 2 tani tashkil etdi: kshan-kshan mei parivartit (K.P. 1980,75) = kshan-kshan “har on” (R.B. (r)) + mei (ort koʻmakchi) + parivartit “oʻzgaruvchi” (S.S.) = “har onda oʻzgaruvchi” modelning formulasi: $R.B. (r) + S.S. = A.B.$

Yuqoridagi natijalardan shu narsa maʼlum boʻldiki modellar orasidagi aksariyat reduplikativ birliklar ot soʻz turkumiga xosligi maʼlum boʻldi. Matnda

uchragan reduplikativ birliklarning o'ziga xos ifodalanish xususitatlari turli xil modellarda shakllantirildi.

3.2. Predikativ hamda ob'ektiv birikmalarga xos reduplikativ birliklar tahlili

Uchinchi bobning ushbu bo'limi predikativ birikmalarga xos reduplikatsiyalarning tahlili bilan boshlanadi.

_2 – guruh. Ushbu guruhdagi misollar predikativ birikmalarga xos bo'lib, ularni soni 4 tani tashkil etdi. Ular quyidagi modellarga taqsimlandi.

1 model. Mazkur modeldagi so'z birikmalarida muzakkar jinsdagi otdan yasalgan reduplikativ birlik va intinsiv fe'l ishtirok etgan. Uning soni bitta: ruup-rang bigar jaataa hai (K.P. 1980,2) = ruup-rang “shakl-shamoil, tus, ko'rinish” (R.B. (O.S. (mz))) + bigar jaataa hai “o'zgarib ketadi” (intensiv fe'lining soda notugal shakli) = “shakli-shamoili o'zgarib ketadi.” Formulasi: (R.B. (O.S.) (mz)) + I.F. sod.n.sh. = P.B.

II model. Ushbu modelga hos birikmalarning tarkibi otdan yasalgan reduplikativ birlik va holat fe'lining inkor shaklidan tuzilgan. Uning soni 1 ta: lenaa-denaa nahin thaa (K.P. 1980,46) = lenaa-denaa “oldi berdi” (R.B. (O.S.)) + mahin thaa “yo'q edi” (holat fe'li (H.F.)) = “oldi berdi yo'q edi”. Modelning formulasi: R.B. (O.S. (mz.)) + H.F. = P.B.

III model. Mazkur model tarkibda otdan yasalgan reduplikativ birlik hamda oddiy notugal zamon inkor shaklidan iborat bo'lib 1 ta misol ushbu modelga oid deb topildi: aar paar nahin hotaa hai (K.P. 1980,31) = aar paar “o'tish” (R.B. (O.S.)) + nahin hotaa hai “bo'lmaydi” (oddiy notugal zamon fe'li) (inkor shakli) (od.n.z.F) = “o'tish bo'lmaydi”. Formulasi R.B. (O.S.) + Od.N.Z.F. = P.B.

IV model. Bu model otdan yasalgan reduplikativ birlik va fe'lining istak maylidan tashkil topgan bo'lib, 1 ta misolda o'z aksini topdi: tor-phor peyda ho (K.P. 1980,1) tor-phor “sinish” (R.B. (O.S.)) + peyda ho “sinish yuzaga kelsin”. Model R.B. (O.S.) + F.I.M = formulasiga ega.

3-guruh. Mazkur guruhdagi misollarni biz shartli ravishda obyektiv birikma deb olishni lozim deb topdik. Chunki soʻz birikmadagi aksariyat reduplikativlar toʻldiruvchi emas balki, hol vazifasini oʻtab kelgan. Bu guruhga oid misollar soni 2 ta misolni tashkil etdi. Ular quyidagi modellarga taqsimlandi.

I model. Buning tarkibida reduplikatsiyaga hos holat holi va feʼning infinitiv shakli ishtirok etgan. Soni 1 ta misoldan iborat: baar-baar aanaa (K.P. 1980,32) = aanaa “kelmoq” (feʼning infinitiv shakli) (FISh)) = “qayta-qayta kelmoq”. Formulasi: R.B. (H.H.) + FISh = O.B.

II model. Ushbu model tarkibida reduplikatsiyaga hos oʻrin-payt holi va potensial feʼning sodda notugal inkor shakli ishtirok etgan. Uning soni 1ta misolni qamrab oladi: idhar-udhar jaa nahiin saktaa (K.P. 1980,62) = idhar udhar “u yer bu yerga” (R.B. oʻrin-payt holi (oʻ.p.H)) + jaa nahiin saktaa “bora olmadi” (potensial feʼning sodda notugal inkor shakli) = “u yer bu yerga bora olmadi” . Formulasi: R.B. (O.P.H.) + P.F. (S.N.in) = O.B.

Soʻz birikmalari tarkibida reduplikativ birlikarning post pazitsiya holatida kelganlari ham koʻpchilikni yaʼni 11 ta misolni tashkil qildi: zamindaaron ke aspaas (K.P. 1980,86) = zamindaaron ke “zamindorlarning” (ot va ort koʻmakchi) + aas+paas “atrofida” (R.B. (ravish (r)) = “zamindorlarning atrofida”.

Yuqoridagi tahlil natijasidan shuni anglash mumkinki hindiy tili matnlaridagi reduplikativ birliklarning aksariyati atributiv birikmani tashkil qiladi. Bu ularning miqdorida ham yaqqol aks etmoqda.

Shuningdek reduplikativ birliklarning postpazitsiya holatida qoʻlanilishi koʻlami ham kengligi maʼlum boʻldi.

Ammo predikativ va obyektiv birikuvlarda reduplikatsiyalarning kam miqdorda aks etishi ularning maqsuldorlik darajasini pasayib ketishiga olib keldi.

XULOSA

Hindiy tilida reduplikatsiyalarning ifodalanish xususiyatlari mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ilmiy tadqiq etilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Garchi, hindiy tili yarim asrdan ortiq vaqtdan beri yurtimizda o'rganilib kelinayotgan bo'lsada, undagi reduplikativ birliklarga oid so'zlar tadqiqot ob'ekti sifatida o'zbek hindshunosligida hali maxsus o'rganilmagan. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda reduplikativ birliklarning leksik-semantik xususiyatlari atroflicha o'rganildi.

2. Hindiy tilidagi reduplikatsiyaga xos ilmiy-nazariy asarlar o'rganilganda, olimlar tomonidan reduplikativ birliklarga oid turli xil fikr-mulohazalar berilganligi kuzatildi. Jumladan, rus va hind tilshunos olimlarning hindi tilidagi reduplikatsiyalarga oid ma'lumotlarida to'liq reduplikatsiyalarni yasashda birinchi komponentlardan so'ng 2 raqamini qo'yish ya'ni ~~chire~~ 2 jumlasidagi hatoliklarga yo'l qo'yish mumkin emasligi tadqiqot jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi.

3. Shu bilan bir qatorda, hindiy tilida reduplikatsiyaga oid leksik birliklar orasida to'liq reduplikatsiyalarning nafaqat ikki marotaba takrorlanishi, balki, uch marotaba takrorlanishi ham kuzatildi (jay-jay-jay).

4. Hindiy tilidagi reduplikativ birliklarga xos so'zlar etimologik, struktur, tematik jihatdan tahlil etildi va ularning mahsuldor qoliplari misollar talqinida ko'rsatib berildi.

5. Hindiy tilida to'plangan reduplikativ birliklar etimologik jihatdan tahlil qilinganida, ya'ni tadbxava guruhiga oid misollarning soni 347 tani (57.5%) tashkil etdi va mahsuldorlik darajasida 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, gibrid reduplikatsiyalarning ham hindiy tili leksikografiyasida yetarlicha o'ringa ega ekanligi ma'lum bo'ldi va ularning 15 ta turi hamda ular orasidagi prepozitsiya, postpozitsiya holatida kelgan gibridlarning mahsuldor qoliplari aniqlandi.

6. Hindiy tilida to'plangan reduplikativ birliklarga oid so'zlar tahlil qilinishi jarayonida ular murakkab qo'shma so'zlarga (ma'no kuchaytiruvchi) oid deb topildi va struktur jihatdan ushbu leksik birliklar so'z turkumlarida tutgan o'rniga qarab mahsuldor qoliplar qatorida o'z aksini topdi.

7. Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, so'z turkumlariga oid reduplikativ birliklarning deyarli barchasida monosemiya yoki polisemiya hodisasi uchradi, biroq, fe'l so'z turkumiga oid reduplikatsiyalar faqatgina monosemiya hodisasiga mansubligi ma'lum bo'ldi.

8. Hindiy tilida to'plangan reduplikativ birliklar tematik jihatdan tahlil qilinganida, ular 15 ta guruhga bo'lib o'rganildi va ular orasida eng ko'p miqdorni inson tabiati va hususiyatiga oid reduplikativ birliklar tashkil etishi kuzatildi. Ular reduplikativ birlikarning (137 ta) 18 tasini ya'ni 13.1% ni tashkil etdi.

9. Hindiy tilida to'plangan reduplikativ birliklar sintagmatik jihatdan tahlil qilindi. Badiiy asar yordamida reduplikativ birliklarga oid so'z birikmalari tanlab olindi va olingan natijalar turli xil modellarda aks ettirildi.

10. Tahlil natijasiga ko'ra eng mahsuldor qolipni atributiv birikma egalladi va ularning umumiy soni 27 ta misolni tashkil etdi.

11. Hindiy tilida to'plangan reduplikativ birliklarga xos leksik-birikliklar gapda aksariyat hollarda prepozitsiya holatida kelishi, ba'zi hollarda postpozitsiya holatida ham qo'llanilishi namoyon bo'ldi. Reduplikativ birliklar postpozitsiya holatida kelganida, ularning soni 11 ta misolni tashkil etdi.

12. Ta'kidlash joizki, garchi ushbu mavzu o'zbek hindshunosligida ilk bor yoritilayotgan bo'lsada, o'ylaymizki, ushbu mavzu yanada atroflicha o'rganilgan holda, kelajakda katta ilmiy tadqiqotlar yaratilinishiga zamin yaratajak.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Asosiy manbalar:

1. K.Prasaad. Darasal. –Илаахаабаад: Sahityavaanii, 1980. -160 p.
2. Хинди - русский словарь. Сост. В.М.Бескровный. Под ред. акад. А.П.Баранникова. -М.: ГИС, 1959. - 1317 б.

Адабиётлар:

3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2000. -245 b.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. J.7. -Т.: O‘zbekiston, 1999. -413 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Т.: Sharq, 1997. -B. 8-9.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, Т.: “Ma’naviyat”, 2008
7. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. - Т.: O‘qituvchi, 1996. -175 b.
8. Баранников А.П. Хиндустани (хинди и урду). - М.:Изд-во лит-рі на иностр. яз., 1956. -239 б.
9. Бархударов А.С. Словообразование в хинди. –М.: Просвещение, 1963. –С.54.
10. Баранников А.П. Краткий грамматической очерк хинди. Прил. К «Хинди-русский словарь». -М.: Изд-во лит-рі на иностр. яз., 1959. -Б.1123-1167.

11. Горелов В.И. Лексикология китайского языка. –М.: Прсвещение, 1984. –С.85.
12. Гуру К. Грамматика хинди. Часть II. Пер. С хинди Г.А. и Р.И.Баранніковіх. Под ред. И с предисл. Проф. Б.А.Ларина. -М.: Изд-во иностранной лит-рі, 1962. -522 б.
13. Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986. -278 б.
14. Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va adabiy stil. –Т.: Fan, 1988. - 207 б.
15. Ishankulova M.I. Indonez tilida reduplikatsiya hodisasi (KATA ULANG). Bitiruv malakaviy ishi. –Toshkent, 2011.
16. Катенина Т.Е. Очерк грамматики языка хинди. Прил. к «Русско - хинди словарю». -М.: Изд-во лит-ри на inostr. yaz., 1957. -124 б.
17. Елизаренкова Т.Я. Индийские (индоарийские) языки. Лингвистический энциклопедический словарь. -М.: Науч. изд. Большая Российская Энциклопедия, 2002. -Б.512.
18. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish, T., 1992
19. Катенина Т.Е. Очерк грамматики языка хинди. Прил. к «Русско - хинди словарю». -М.: Изд-во лит-ры на иностр. яз., 1957. -Б.1308-1310.
20. Немченко В.Н. Основніе понятия словообразования в терминах. – Красноярск, 1985. –С.78.
21. Nurmatov A., Shoxobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeu D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Т., 2001.
22. Розентал Д.Е., Теленкова М.А. Словар-справочник лингвистических терминов. –М.:Наука, 1989. –С.286.
23. Шанский Н.М. Основі словообразовательного анализа. –М.: Учпедиз., 1953. –С.11.

24. Шоматов А.Н. Очерки исторической лексикологии хинди и урду XV-начала XVIII вв. «Мусульманская» лексика и южный хиндустани. -Т.: Фан, 1990. - 164 б.

25. Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. I qism. -T.: ToshDShI nashriyoti, 2003. -156 b.

26. Hoshimova S.A. Hozirgi zamon xitoy tilida reduplikatsiya. Fil.f.n.....yoz.dis-ya av-ti. –Toshkent, 2009. -25 b.

27. O‘zbek tili grammatikasi. T I. Morfologiya. -T.: Fan, 1975. -610 b.

Lug‘atlar:

28. Русско - хинди словарь. Под ред. В.М.Бескровного. -М.: ГИС, 1957. - 376 б.

29. Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Бескровный, Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т I. -М.: Советская Энциклопедия, 1972. -907 б.

30. Кочергина В.А. Санскритско-русский словарь. Под ред. В.И. Кальянова. -М.: Изд. Русский язык, 1978. -895 б.

31. Ульциферов О.Г. Современный русско-хинди словарь. -М.: Изд. Русский язык медиа, 2004. -1247 б.

32. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. II tom. – M., 1981. – С. 482.

33. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. -T.: Fan, 2002. -165 b.

34. Лингвистический энциклопедический словарь. 2 издание, дополненное. -М.: Научное издательство Большая Российская энциклопедия, 2002. -707 б.

Internet sahifalari:

35. <http://www.india.com>

36. [http: // http://www.indialanguages.com](http://http://www.indialanguages.com)

37. [http: // www.ru.wikipedia.org](http://www.ru.wikipedia.org).

38. [http: // www.tsil.uz.ziyo](http://www.tsil.uz.ziyo)

39. [http: // www.indianlanguages.com](http://www.indianlanguages.com)

40. [http: // www.dicts.alphanet.ru](http://www.dicts.alphanet.ru)

41. [http: // www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)